

LUO YANG SHAHRIGA ILMIY-AMALIY SAFAR NATIJALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17809136>

Alizoda Sobirov

*FarDU O'zbekiston-Xitoy arxeologiya qo'shma
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya (O'zbek tilida)

Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasining eng qadimiy ilmiy-madaniy markazlaridan biri — Luo Yang shahriga amalga oshirilgan ilmiy-amaliy safar jarayonida o'rganilgan arxeologik, restavratsiya va muzeyshunoslik tajribalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Farg'ona davlat universitetining O'zbekiston-Xitoy qo'shma arxeologiya kafedrasi o'qituvchisi va talabalari Xitoy Akademiyasining IVPP ilmiy markazlari, Longmen buddaviy o'yma g'orlari, Buyuk kanal muzeyi hamda Jeng Feng Fang arxeologik yodgorligida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar qazishmalar, restavratsiya jarayonlari, muzey faoliyati va tarixiy merosni saqlashda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar bilan bevosita tanishdilar. Shuningdek, Luo Yang muzeylarida qo'llanilayotgan raqamlashtirish, 3D rekonstruksiya, sensorli ekspozitsiyalar, interaktiv ta'lim zonalari kabi zamonaviy muzeylashtirish texnologiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Restavratsiya laboratoriyalarida sopol, metall, bronza buyumlar va yozma manbalarni qayta tiklashning ilg'or texnik yondashuvlari tajribada ko'rildi. Maqolada Xitoyning madaniy merosni saqlash tizimi, turistik infratuzilmasi va arxeologik merosdan foydalanish strategiyasi O'zbekiston sharoiti bilan solishtirib baholangan.

Kalit so'zlar

Luo Yang, arxeologiya, arxeologik qazishmalar, restavratsiya, konservatsiya, muzeylashtirish, madaniy meros, raqamlashtirish, 3D rekonstruksiya, interaktiv ekspozitsiya, Longmen g'orlari, Buyuk kanal muzeyi, Jeng Feng Fang yodgorligi, arxeologik laboratoriya.

Abstract (In English)

This article provides a comprehensive analysis of the archaeological, restoration and museological experiences learned during a scientific and practical trip to Luo Yang, one of the most ancient scientific and cultural centers of the People's Republic of China. During the study, teachers and students of the Uzbekistan-China Joint Department of Archaeology of Fergana State University

were directly acquainted with the fundamental research, excavations, restoration processes, museum activities and modern methods used in the preservation of historical heritage at the IVPP scientific centers of the Chinese Academy of Sciences, the Longmen Buddhist Carving Caves, the Grand Canal Museum and the Zheng Feng Fang Archaeological Monument. Also, modern museological technologies used in the Luo Yang museums, such as digitization, 3D reconstruction, sensory expositions, and interactive educational zones, were scientifically analyzed. Advanced technical approaches to the restoration of ceramic, metal, bronze objects, and written sources were tested in restoration laboratories. The article compares China's cultural heritage preservation system, tourism infrastructure, and archaeological heritage utilization strategy with the conditions of Uzbekistan.

Keywords

Luo Yang, archaeology, archaeological excavations, restoration, conservation, museology, cultural heritage, digitization, 3D reconstruction, interactive exhibition, Longmen Grottoes, Grand Canal Museum, Zheng Feng Fang Monument, archaeological laboratory.

Luo Yang shahri Xitoy sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo'lib, ko'plab imperiyalar poytaxti sifatida tarixda muhim o'rin egallagan. Ushbu hududning qadimiy madaniy qatlamlari, boy tarixiy merosi va arxeologik tadqiqotlar uchun yaratilgan sharoitlar uni dunyoning eng muhim ilmiy markazlaridan biriga aylantiradi. Milodiy III-X asrlarda Luo Yang bir necha imperiyalar poytaxti sifatida iqtisodiy, siyosiy va diniy markaz darajasiga ko'tarilgan. Shaharning tarixiy ko'chalari va rekonstruksiya qilingan me'moriy ansambllari qadimiy muhitni real tarzda aks ettiradi.

Farg'ona davlat universiteti talabalari va o'qituvchilari ishtirokidagi mazkur ilmiy-amaliy safar Xitoyning ilg'or arxeologik, restavratsiya va muzeyshunoslik tajribalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ikki davlat ilmiy hamkorligining samarali ko'rinishi hisoblanadi.

Men talabalar bilan ilmiy safarimizni Xitoyning eng tarixiy shaharlaridan biri bo'lmish Luo Yang shahridan boshladik. Tashrifimizdan asosiy maqsad talabalar bilan amaliyot davrida restavratsiya va muzeylar faoliyati bilan tanishish orqali yangi metodlarni o'rganish bo'ldi. Bu imkoniyatdan foydalanib Luo Yang shahri tarixi va Xitoy madaniyati bilan ham tanishish imkoniyati bo'ldi. Bundan tashqari Xitoy tarixini chuqurroq o'rganish orqali bizda yangi bilimlar orqaliy solishtirish imkoni ham paydo bo'ldi, albatta bundan judayam xursand bo'ldik. Taassurotlarimiz judayam bir boshqacha chunki bitta shaharda 16 ta davlat

miqyosida, 100 tadan ortiq har xil sohalarga oid muzeylar faoliyat yuritadi. Luo Yang shaharidagi muzeylar tashqi ko‘rinish va dizayn bo‘yicha ham takrorlanmas bo‘lganda ham ajoyib bir insonni o‘ziga jalb qila oladigan muzeylarni ko‘rishga muvaffaq bo‘ldik.

Luo Yangning birinchi navbatda tabiatiga nazar soladigan bo‘lsangiz juda ham ajoyib, yomg‘ir ham me‘yorida yog‘ib turadi. Luo Yang shahrida uchta daryo bor Xuanghe, Luo va Yi daryolari oqib o‘tadi. Bu daryolar atrofida qadimiy sivilizatsiyalar markazi bo‘lganligi va bu sivilizatsiyalar asrlar davomida gullab yashnaganligi haqida tarixiy manbalarda ma‘lumotlar bor. Muzeylarga tashrifimiz davomida ham guvoh bo‘ldikki Luo Yang sharqni g‘arb bilan bog‘lovchi markazlardan biri bo‘lgan. Biz muzeylarga tashrifimiz davomida amin bo‘ldikki muzeylardagi yodgorliklar haqida berilayotgan ma‘lumotlar xaritalar, topilmalar ham aniq isbotini ko‘rsatib turibdi.

Luo Yangda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar natijasida tosh davridan beri insoniyat uchun yashash uchun qulay maskan bo‘lganligini aniqlashgan ekan. Luo Yang milodiy III asrdan X asrgacha imperiyalar poytaxti vazifasini bajargan va bu davrlarda iqtisodiy-siyosiy jihatdan gullab yashnaganligiga guvoh bo‘ldik. Luo Yang shahriga sayohat qilish davomida, bir vaqtning o‘zida tarixiy va zamonaviy inshootlarni kuzatish ham ajoyib his paydo qiladi sayyohlarda. Luo Yangning eski tarixiy ko‘chalariga ham tashrif buyurib, asosan shaharni ko‘rinishi ham ajoyib tarixiy jihatdan rekonstruksiya qilingan, lekin o‘tmishda yurgandek tasavvur qilasiz o‘zingizni, albatta insonni o‘ziga jalb etadi ayniqsa Xitoyning boshqa shaharlardan ham turistlar oqimi to‘xtamayapti albatta bu o‘sha Luo Yang shahriga qiziqishi o‘zi shuni ko‘rsatayotganiga guvoh bo‘ldim. Luo Yang shahri qadimda ham barcha sohalarda markaz sifatida faoliyat yuritgan – diniy sohada deysizmi, savdo sohasida deysizmi markaz bo‘lganiga yana bir bor guvoh bo‘ldik. Luo Yangdagi Longmen buddaviy o‘yma g‘orlari nomi bilan mashhur Xitoydagi birinchi buddaviylik markazi va bu yerdan buddaviylik boshqa hududlarga tarqalgan haqida ma‘lumotlar bor ekan. Longmen buddaviylik o‘yma g‘orlariga ham borib ko‘rishga muvaffaq bo‘ldik. U yerdagi turistlar uchun yaratilgan sharoitlar ham insonni o‘ziga jalb qiladi va boshqalargayam shu joylarga tashrif buyurishni tavsiya qilishiga zamin yaratadi. Xitoy Xalq Respublikasi Luo Yang shahriga judayam katta e‘tibor berayotganligi o‘z samarasini bermay qolmayapti, albatta bu Luo Yang shahrining qadimiyligini yanada ko‘rsatib berish orqali xitoy yoshlarida vatanparvarlik, qanday buyuk ajdodlari borligidan faxrlanish hissi yuksalib bormoqda. U Xitoydagi buddaviylikning eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. G‘orlarda o‘yilgan minglab haykallar, naqshlar va yozuvlar diniy ta‘limot, san‘at va madaniyat tarixini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Turistlar

uchun yaratilgan qulay infratuzilma — elektron ko'rgazmalar, interaktiv xaritalar va 3D tasvirlar tarixiy merosni zamonaviy talqinda tushuntirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari biz qazishmalar olib borilayotgan Jeng Feng Fang arxeologik yodgorlik hududida olib borilayotgan qazishmalarda ham qatnashib yangi metodlarni o'rganishga erishdik. Bundan tashqari qazishmalarda qatnashib, hudud haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ldim. Imperator farzandlarining saroylari, hukmdorlar saroylarining xantu (ya'ni tuproqni zichlash orqali hosil qilinadigan tepalik va binolarning poydevor qismi) hududlarini qazishma bo'layotgan joylarda ham kuzatishga muvaffaq bo'ldik. Jeng Feng Fang yodgorligi Xitoyning imperatorlik davriga oid muhim arxeologik obyektlardan biridir. Bu yerda talabalarning amaliy ishtiroki quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- Xantu uslubida qurilgan poydevorlarni o'rganish
- Qazishma qatlamlarida stratigrafiya bilan ishlash
- Topilmalarni dastlabki tozalash va ro'yxatga olish usullarini o'zlashtirish

Hududda imperator avlodlari saroylariga oid arxitektura qoldiqlari topilgani diqqatga sazovor bo'lib, ular Xitoy davlat boshqaruvi tarixiga oid yangi tasavvurlar beradi.

Muzeylarga tashrif buyurishimiz davomida shu narsalarga guvoh bo'ldikki, muzeylarda yaratilayotgan sharoitlar 7–70 yoshgacha bo'lgan mahalliy va xorijiy sayyohlarga tushunarli bo'lishiga katta e'tibor berilgan. Ularni diqqatlarini jalb qilish uchun bironta tarixiy topilma bo'ladimi farqi yo'q – to'laqonli tushunishi uchun 4–5 xil usuldan foydalanib, sodda videolar, xaritalar, rasmlar va 3D animatsiyalar ko'rinishida, bundan tashqari turli o'yinlar, elektron o'yinlar orqali tushuncha paydo qilishga harakat qilishgan. Tarixdan yoki arxeologiyadan xabari yo'q insonlarga ham tushunarli darajada yoritib berilgan. Luo Yang Buyuk kanali muzeyiga tashrif buyurganimizda kuzatyapmizki imperiyalar davrida qanday ahamiyat kasb etganligi, kanal qurilishi uchun uzoq yillar davomida mehnat qilinganligini ko'rsatib bera olishgan. Kanalning uzunligi 2700 km bo'lib, bu 3–4 ta daryolarni bir-biriga bog'lovchi va bu orqali suv transportining rivojlanganligini ko'rish mumkin. Bu, albatta, berilgan ma'lumotlar orqali tashrif buyuruvchilarda hech qanday savollarga o'rin qolmaganligini va barcha sharoitlar sayyohlar uchun mukammal yaratilganligini ko'rsatib beradi.

Luo Yangdagi eng katta taassurotlardan biri — muzeylar faoliyatining yuqori darajada tashkil etilganligidir. Shahar bo'ylab 100 dan ortiq turli sohalarga ixtisoslashgan muzeylar mavjud bo'lib, ularda quyidagi innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi:

- tarixiy jarayonlarni **3D animatsiyalar** orqali tushuntirish

- interaktiv o'yinlar, sensor ekranlar
- yoshlar va bolalar uchun maxsus o'quv zonalari
- topilmalarni ko'ruvchilar psixologiyasiga mos yoritish tizimi

Ayniqsa Buyuk kanal muzeyi imperiyalar davrida daryo transporti ahamiyatini ilmiy asosda namoyish etishi bilan e'tiborga molik.

Luo Yang shaharidagi barcha muzeylarni ko'rishga bizda imkoniyat bo'lmadi, chunki muzeylar juda ko'p, vaqtimiz esa qisqa bo'ldi. Shu sababli biz eng muhim, davlat miqyosidagi va e'tiborli muzeylarga tashrif buyurdik. Ammo shahar o'zi bir tarix — har bir qadamda turli sohalarga oid muzeylarni uchratish mumkin. Masalan, sopol buyumlar, haykaltaroshlik, to'qimachilik va boshqa sohalarga oid muzeylar hatto qishloqlarda ham mavjudligiga guvoh bo'ldik.

Luo Yang arxeologik tadqiqotlar institutiga tegishli bo'lgan restavratsiya laboratoriyasiga ham tashrif buyurish va amaliyot o'tash imkoniyati bo'ldi. Restavratsiya laboratoriyasida juda yaxshi sharoitlar yaratilgan, barcha topilmalarni o'rganish va qayta tiklash bo'yicha maxsus jihozlangan xonalarda amaliyot o'tkazdik. Bu yerda sopol, temir, bronza va qo'lyozmalarni qayta tiklash bo'yicha jarayonlarni kuzatib, albatta, o'zimizga tegishli xulosalar va yangi metodlarni o'rganishga erishdik. Luo Yang shahriga ilmiy-amaliy safar Xitoyning qadimiy madaniyati, arxeologiyasi va tarixiy merosni asrash tajribasini o'rganishda muhim bosqich bo'ldi. Safar davomida:

- arxeologik va restavratsion amaliy ko'nikmalar boyitildi
- muzeyshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari o'rganildi
- ikki davlat o'rtasidagi ilmiy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi

Kelajakda ushbu yo'nalishda qo'shma ekspeditsiyalarni kengaytirish, o'zaro ilmiy nashrlar tayyorlash va talabalar almashinuvini kuchaytirish taklif etiladi.

O'rgangan yangi uslublarni amaliyotda qo'llab tajriba o'tkazish orqali bu bilimlarni Farg'ona davlat universitetida dars jarayonlarida foydalanishni rejalashtirdik. Albatta, taassurotlarimiz juda boy va unutilmas bo'ldi. Yana bir imkoniyat bo'lsa, shaharning borishga ulgura olmagan muzey va tarixiy maskanlariga keyingi tashriflarda borishni niyat qildim.

Luo Yang shahriga amalga oshirilgan ilmiy-amaliy safar natijalari Xitoyning madaniy merosni asrash, arxeologik tadqiqotlarni tashkil etish va zamonaviy muzeylashtirish bo'yicha yuksak tajribaga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Safar davomida olingan amaliy kuzatuvlar, arxeologik qazishmalar jarayonida ishtirok etish, restavratsiya laboratoriyalaridagi texnologiyalar bilan bevosita tanishish hamda muzeyshunoslikning innovatsion metodlarini o'rganish Farg'ona davlat universiteti jamoasi uchun muhim ilmiy-amaliy natijalarni berdi.

Longmen buddaviy o'yma g'orlari, Buyuk kanal muzeyi va Jeng Feng Fang arxeologik yodgorligida olib borilayotgan sistematik ilmiy tadqiqotlar Xitoyda madaniy merosni saqlash jarayoni davlat siyosati bilan uyg'un holda olib borilayotganini tasdiqlaydi. Xususan, 3D rekonstruksiya, raqamli ekspozitsiyalar, sensorli interaktiv panellar kabi texnologiyalar tarixiy ob'ektlarning ilmiy talqinini keng jamoatchilik uchun yanada tushunarli va qiziqarli ko'rinishga keltirgan. Bu yondashuvlar O'zbekiston muzeylari uchun ham qo'llash mumkin bo'lgan samarali tajriba sifatida e'tirof etildi.

Jeng Feng Fang yodgorligida olib borilgan amaliyot davomida talabalar stratigrafiya, topilmalarni dastlabki qayta ishlash, xantu tipidagi poydevorlarni o'rganish kabi ilmiy jarayonlarda bevosita ishtirok etdilar. Bu kelgusida arxeologik ekspeditsiyalarni tashkil qilish va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Umuman olganda, safar ikki davlat o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamladi, yangi metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini berdi hamda O'zbekiston sharoitida arxeologiya va madaniy merosni muhofaza qilish jarayonlarini takomillashtirish uchun amaliy asos yaratdi. Ushbu tajriba Farg'ona vodiysi yodgorliklarini restavratsiya qilish, muzeylashtirish va ulardan turizmدا samarali foydalanish yo'lida dolzarb ilmiy-amaliy xulosalar beruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Luo, Z., & Deng, T. (2024). *Archaeological Research and Cultural Heritage of Luoyang*. Beijing: IVPP Press.
2. China Cultural Heritage Administration. (2023). *Luoyang Museums and Preservation Practices*. Beijing.
3. Fergana State University, Department of Archaeology. (2025). *Field Study Reports on Chinese Archaeological Experience*.
4. Wang, L., & Zhou, X. (2022). *The Role of Luoyang in the Silk Road Civilization*. *Journal of Asian Archaeology*, 14(3), 45-59.
5. Institute of Vertebrate Paleontology and Paleoanthropology (IVPP), CAS. Official website: <http://ivpp.cas.cn>
6. UNESCO World Heritage Centre. (2024). *Longmen Grottoes, China*. Retrieved from <https://whc.unesco.org>